

REZYUME. Maqolada jahon poytaxt shaharlarining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy talqini yoritilgan. Shuningdek, poytaxt shaharlarining geografik xususiyatlari asosida tasnifiy guruhlari tahlili bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается историческое развитие и современная интерпретация мировых столиц. Кроме того, описан анализ классификационных группировок на основе географических особенностей столиц.

SUMMARY. The article examines the historical development and modern interpretation of world capitals. In addition, describes the analysis of classification groupings based on the geographical features of capitals.

QASHQADARYO VILOYATIDAGI AHOLINING HAZM QILISH ORGANLARI KASALLIKLARIGA CHALINISHI: IQTISODIY GEOGRAFIK JIHATLAR, EKOLOGIK TA'SIRLAR VA TIBBIY PROFILAKTIKA

M.A.Fayzullayev – *geografiya fanlari doktori (DSc), dotsent*

S.B.Xujamova – *assistent o'qituvchi*

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: hazm qilish organlari kasalliklari, iqtisodiy geografik omillar, ekologik ta'sir, sog'liqni saqlash, tibbiy profilaktika, ekologik muhit, sanitariya-gigiyena, sog'lom turmush tarzi.

Ключевые слова: болезни органов пищеварения, экономико-географические факторы, воздействие на окружающую среду, здравоохранение, медицинская профилактика, экологическая среда, санитария и гигиена, здоровый образ жизни.

Key words: digestive system diseases, economic geographical factors, environmental impact, health care, medical prevention, ecological environment, sanitary and hygienic conditions, healthy lifestyle.

Kirish. Qashqadaryo viloyatidagi aholining hazm qilish organlari kasalliklari, mintaqaning sog'liqni saqlash tizimiga qo'yiladigan jiddiy muammolardan biri sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hazm qilish tizimi kasalliklari, nafaqat jismoniy salomatlikni buzish, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlashga, shuningdek, aholi mehnat qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan keng tarqalgan kasalliklardir. Ushbu maqola, Qashqadaryo viloyatida hazm qilish organlari kasalliklarining tarqalishini tahlil qilish, shu bilan birga, bu jarayonlarga iqtisodiy-geografik va ekologik omillarning ta'sirini o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

Viloyatning iqlimiy, geografik va iqtisodiy sharoitlari, shu jumladan qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, suvlardan foydalanishning sifati va ularga nisbatan sanitariya holati, aholi sog'lig'iga bevosita ta'sir qiladi. Bunday ekologik va iqtisodiy ta'sirlar, hazm qilish tizimi kasalliklarining tarqalishini kuchaytirib, sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini pasaytiradi. Ayniqsa, iqlimiy sharoitlarning o'zgarishi va ishlab chiqarish faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta'siri, aholi orasida hazm qilish organlari kasalliklarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Asosiy qism. Aholining hazm qilish organlari kasalliklari (oshqozon-ichak tizimi kasalliklari) global miqyosda jiddiy tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolardan biridir. Bu kasalliklar inson salomatligiga katta ta'sir ko'rsatib, global sog'liqni saqlash tizimiga katta yuk bo'lishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, oshqozon-ichak tizimi kasalliklari butun dunyo bo'ylab sog'liqni saqlash tizimlarining samaradorligini pasaytiradi, chunki ular nafaqat jismoniy sog'likni, balki iqtisodiy rivojlanish va mehnat unumdorligini ham salbiy ta'sir qiladi [15]. Global miqyosda hazm qilish tizimi kasalliklari tobora kengayib bormoqda. Tibbiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy hayot tarzidagi o'zgarishlar, ekologik ifloslanish, noto'g'ri oziqlanish va stress kabi omillar oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining tez tarqalishiga olib kelmoqda. Yuqori darajada yog'li va tuzli oziq-ovqatlar iste'moli, kam harakat qilish, stress va genetik omillar bu kasalliklarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi [11]. Amerika Qo'shma Shtatlari va Yevropaning ko'plab

davlatlarida oshqozon-ichak tizimi kasalliklari tez-tez uchraydigan kasalliklar ro'yxatida yuqori o'rinlarni egallaydi. K.Anderson tomonidan olib borilgan tadqiqotga ko'ra, AQSHda har yili oshqozon-ichak tizimi kasalliklaridan 100 000 dan ortiq o'lim holatlari qayd etiladi [1]. Bu kasalliklarning asosan "yomon" oziqlanish, yuqori darajadagi spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, noxush ekologik sharoitlar va stress bilan bog'liq ekanligi tasdiqlangan. Shuningdek, Osiyo va Afrika mamlakatlarida ham ushbu kasalliklarning tarqalishi tobora ortib bormoqda. M.Yadav tomonidan o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, Janubiy Osiyo mintaqasida, xususan, Hindiston va Pokistonda, aholining oshqozon-ichak tizimi kasalliklariga chalinishi, ilgari kuzatilmagan darajaga yetgan. Ushbu mintaqalarda malnutrisyon (oziqlanishdagi xatoliklar) va jismoniy faoliyatning pastligi kasalliklarning tez tarqalishiga olib kelmoqda [12].

Hazm qilish tizimi kasalliklarining asosiy sabablaridan biri sifatida oziqlanish va hayot tarzidagi o'zgarishlar ko'rsatilmoqda. G.Zhao tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, yuqori yog'li va shakarli mahsulotlar, vaqti-vaqti bilan ovqatlanish va qahva kabi ichimliklarning ko'p iste'moli oshqozon-ichak tizimi kasalliklariga olib kelishini ta'kidlagan [13]. Bundan tashqari, zamonaviy hayot tarzida o'zgarishlar – masalan, uzoq vaqt davomida jismoniy faollikning kamligi va stress darajasining ortishi, hazm qilish tizimining ishlashiga salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, oziqlanishning to'g'ri tamoyillariga rioya qilmaslik, bu kasalliklarning tarqalishini kuchaytiradi. Oziqlanish va sog'lom turmush tarzining ahamiyatini, M.McCarthy ham qayd etgan. U, ayniqsa, qishloq va shaharlarda turli xil oziq-ovqat iste'molini va oziqlanish odatlarini tahlil qilib, noto'g'ri oziqlanishning oshqozon-ichak tizimi kasalliklari rivojlanishiga olib kelishini ko'rsatgan [7].

Global miqyosda ekologik muammolar, ayniqsa havoning ifloslanishi, kimyoviy moddalar va pestitsidlar bilan ifloslanish, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining tarqalishini tezlashtirmoqda. M.Johansson o'zining tadqiqotlarida, havodagi ifloslanish va atrof-muhitdagi kimyoviy moddalarning oshishi, oziq-ovqat zanjiri orqali odam organizmiga kirib, hazm qilish tizimining yallig'lanish jarayonlarini keltirib chiqarishini aniqlagan. Shuningdek, pestitsidlar va og'ir metallar bilan ifloslanish,

ovqatlanishning xavfsizligini ta'minlashda muammo bo'lib qolmoqda [4]. Yevropa va Shimoliy Amerikadagi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, pestitsidlar va kimyoviy moddalar ishlatilgan mintaqalarda yashovchi aholi o'rtasida oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining ko'payishi kuzatilmoqda. Ekologik ifloslanish, ayniqsa, qishloq hududlarida ushbu kasalliklarning tarqalishini kuchaytiradi. Solomonov tomonidan olib borilgan ilmiy ishda, kimyoviy moddalar bilan ifloslangan mintaqalarda, ayniqsa oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining ortishi aniqlandi [10].

Stress ham oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. J.Turner o'zining tadqiqotida stressning oshqozon-ichak tizimiga ta'sirini o'rganib, yuqori darajadagi ruhiy zo'riqishlar va psixologik omillarning hazm qilish tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [7]. Stressning kuchayishi, asosan, oshqozon-ichak tizimining yallig'lanish jarayonlarini kuchaytiradi va ularning rivojlanishiga olib keladi.

Tibbiy yordam va profilaktika ham hazm qilish tizimi kasalliklarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Anderson shunday xulosa qilgan: "Kasalliklarni oldini olish va erta aniqlash sog'liqni saqlash tizimining samaradorligini oshiradi" [1]. U sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, oziqlanish bo'yicha ta'lim va tibbiy yordamni kengaytirishni taklif etadi. Jahon miqyosida hazm qilish tizimi kasalliklari tobora keng tarqalmoqda va bu kasalliklarning rivojlanishiga turli ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Oziqlanish odatlari, stress darajasi, ekologik ifloslanish va kam harakat qilish kabi omillar kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Ushbu kasalliklarning oldini olish uchun tibbiy yordamni kengaytirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va sog'lom turmush tarzini rivojlantirish zarurdir.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan bo'lib, aholi zichligi, tabiiy resurslar, qishloq xo'jaligi faoliyati va sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan farqlanadi. Shuningdek, viloyatning geografik, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, aholining salomatligiga ta'sir qiladi. Ayniqsa, hazm qilish tizimi kasalliklarining (gastrit, oshqozon yarasi, ichak disfunktsiyalari) tarqalishida ekologik ifloslanish, oziqlanish odatlari, tibbiy yordamga kirish imkoniyatlari va iqtisodiy omillar katta rol o'ynaydi. Ushbu maqola Qashqadaryo viloyatidagi hazm qilish tizimi kasalliklarining tarqalishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-geografik omillarni ilmiy tahlil qilish, shu bilan birga, bu kasalliklarning oldini olish va davolash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish maqsadida yozilgan.

Hazm qilish tizimi kasalliklari, ayniqsa, oshqozon-ichak tizimi bilan bog'liq kasalliklar, butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan sog'liq muammolaridan biridir. O'zbekiston, jumladan, Qashqadaryo viloyati ham ushbu kasalliklarning yuqori darajada tarqalishi bilan ajralib turadi (1-jadval). V.T.Isakov tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ekologik ifloslanish va oshqozon-ichak tizimi kasalliklari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi aniqlangan [3]. Oziq-ovqat zanjiri orqali organizmga kirgan pestitsidlar va kimyoviy moddalar, oshqozon-ichak tizimi kasalliklariga olib kelishi mumkin. N.Komilova ham o'zining ishida, oziqlanish va gigienaga oid bilimlarning etishmasligi, aholining sog'liqni saqlashga bo'lgan yondashuvining kamchiliklari bu kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lishini ta'kidlagan [6].

1-jadval. 1-jadval. Hududlar bo'yicha aholining ovqat hazm qilish organlari kasalliklari (ming holat)

Hududlar	Yillar			
	2015	2016	2017	2018
Qoraqalpog'iston Respublikasi	91,7	96,0	92,7	97,3
Andijon	171,8	164,8	182,5	180,0
Buxoro	74,2	70,4	70,1	52,8
Jizzax	45,0	44,1	37,2	20,7
Qashqadaryo	267,4	324,0	308,4	298,0
Navoiy	76,2	72,7	77,0	76,2
Namangan	131,1	142,9	114,1	80,4
Samarqand	206,3	217,3	133,4	130,9
Surxondaryo	139,8	148,7	111,5	147,5
Sirdaryo	33,8	35,7	39,2	57,2
Toshkent	217,0	220,7	156,9	170,4
Farg'ona	166,3	166,4	147,0	195,8
Xorazm	155,2	161,3	162,8	155,9

Hududlar	Yillar			
	2019	2020	2021	2022
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2210,8	3511,6	3740,6	3925,0
Andijon	176,0	328,2	345,6	329,7
Buxoro	39,5	182,0	186,9	277,3
Jizzax	28,1	58,8	80,3	86,9
Qashqadaryo	296,7	484,1	346,2	372,1
Navoiy	74,7	87,6	86,6	98,0
Namangan	87,9	176,2	215,9	198,0
Samarqand	182,4	254,8	294,1	321,7
Surxondaryo	132,6	182,2	197,0	205,4
Sirdaryo	31,2	59,7	58,9	78,2
Toshkent	161,3	332,3	477,3	349,0
Farg'ona	201,9	248,8	288,0	279,3
Xorazm	154,1	239,2	244,3	260,7

Jadval O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi materiallari asosida tuzilgan

Shuningdek, Gumerov o'zining ilmiy ishlanmasida qishloq hududlarida, ayniqsa pestitsidlar va kimyoviy moddalar ishlatilishining oshishi, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining yuqori darajada rivojlanishiga olib kelishini o'rgangan. Salahov iqtisodiy rivojlanish va sog'liqni saqlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni, aholining tibbiy yordamga kirish imkoniyatlarining cheklanganligini va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning kasalliklarning tarqalishiga ta'sirini belgilagan [9].

Qashqadaryo viloyatining geografik joylashuvi va tabiiy resurslari hududdagi qishloq xo'jaligini rivojlantirishga xizmat qilsa-da, bu hududda ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Viloyatda keng tarqalgan sug'oriladigan yerlar asosan paxta, g'alla, sabzavot va meva ekinlarini yetishtirish uchun ishlatiladi. Isakov tomonidan olib borilgan tadqiqotda, sug'orish tizimi orqali amalga oshiriladigan pestitsidlar va kimyoviy moddalar, oziq-ovqatlar orqali inson organizmiga kirib, oshqozon-ichak tizimi kasalliklariga sabab bo'lishi aniqlangan [3]. Viloyatdagi o'simliklarning ko'p qismining ifloslanishi, ayniqsa paxta ekinlarida pestitsidlar ishlatilishi, bu kasalliklarning tarqalishining asosiy sabablaridan biridir. Shuningdek, Zainutdinov ekologik xavf-xatarlarni tahlil qilishda shunday xulosaga kelgan: "Qishloq hududlaridagi

yuqori darajadagi ekologik ifloslanish, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining ko'payishiga sabab bo'ladi" [14]. Tabiiy resurslarning noto'g'ri boshqarilishi va kimyoviy moddalar bilan ifloslanish nafaqat o'simliklarga, balki odamlar salomatligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida sug'oriladigan yerlarning ko'pligi va intensiv qishloq xo'jaligi faoliyati ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bu yerlar, ayniqsa paxta ekinlari bilan ifloslanadi, bu esa oziq-ovqat va ichimlik suvlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Gumerov pestitsidlar va kimyoviy moddalar ishlatilgan joylarda yashovchi aholi o'rtasida oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining ko'payishiga olib kelishini aniqlagan [2].

Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar ham kasalliklarning tarqalishiga ta'sir ko'rsatadi. Qishloq hududlarida aholi asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadi, bu esa ularning turmush darajasining past bo'lishiga olib keladi. Karantinov ning fikriga ko'ra, past daromadli oilalar va yomon turmush sharoitlari oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini rivojlanishiga olib keladi [5]. Gumerov esa oziqlanishning noto'g'ri odatlari va yuqori tuz va yog'lardan iborat bo'lgan oziq-ovqatlar, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarining rivojlanishiga yordam berishini ta'kidlaydi [2]. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yomonligi tibbiy yordamning yetarli darajada ta'minlanmasligiga ham olib keladi. Salahov o'zining ilmiy ishida, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yomonligi, tibbiy yordamga kirishni cheklaydi va kasalliklarning oldini olishda to'sqinlik qiladi deb ta'kidlaydi. Bu esa, ayniqsa, viloyatning qishloq hududlarida sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Qashqadaryo viloyatida sanoatning rivojlanmasligi va transport infratuzilmasining pastligi, tibbiy xizmatlarga kirishni cheklaydi. Solomonov shunday fikr bildirgan: "Tibbiy xizmatga kirishning cheklanganligi, kasalliklarning oldini olish va davolashda to'sqinlik qiladi" [10]. Ayniqsa, qishloq hududlarida tibbiy yordamga kirish imkoniyatlari chegaralangan va kasalliklarni erta aniqlashda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bundan tashqari, tibbiy xizmatlarning yetarli darajada rivojlanmasligi va ularning arzonligi yoki qishloq joylarida mavjud emasligi, kasalliklarni samarali davolashda jiddiy to'siqlarga olib keladi. Mustafaev ham o'zining ishida, tibbiy yordamning qishloq hududlarida mavjud emasligi, kasalliklarning oldini olishda hamda ularni davolashda samaradorlikni kamaytirishini ta'kidlaydi [8].

Qashqadaryo viloyatida hazm qilish organlari kasalliklarining tarqalishi hududning tabiiy-geografik sharoitlari, ekologik holati va iqtisodiy faoliyati bilan uzviy bog'liq. Tadqiqotlar natijasida aniqlanganidek, sanoat korxonalaridan chiqayotgan zararli moddalarning havo, suv va tuproqni ifloslantirishi, ayniqsa ichimlik suvi sifatining pastligi, aholi sog'lig'iga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Viloyatning ayrim hududlarida suv resurslari sho'rlanishi va mikroblar ifloslanish holatlari yuqori bo'lib, bu holat oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini keltirib chiqaruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar, jumladan, aholining daromad darajasi, sog'lom oziqlanish madaniyati va gigiyenaga oid bilimlarning yetishmasligi hazm qilish tizimi kasalliklarining yuqori ko'rsatkichlariga hissa qo'shmoqda. Kasalliklarning oldini olish uchun profilaktika choralarini takomillashtirish, ekologik monitoring tizimini kuchaytirish, aholini sifatli ichimlik suvi va xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash zarur. Shu bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlash maqsadida sanoat chiqindilarini qayta ishlash va toza texnologiyalarni joriy etish muhimdir.

Maqolada keltirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Viloyatning ekologik vaziyatini yaxshilashga qaratilgan strategik reja ishlab chiqish va amalga oshirish.
2. Aholining sanitariya-gigiyenik madaniyatini oshirish uchun keng qamrovli ma'rifiy tadbirlar tashkil etish.
3. Sog'liqni saqlash tizimida hazm qilish tizimi kasalliklarini erta aniqlash va davolash bo'yicha diagnostika va profilaktika xizmatlarini kengaytirish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, kompleks yondashuv orqali viloyatning ekologik muammolarini hal qilish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali aholi salomatligini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Buning uchun, avvalo, hududda ekologik monitoring tizimini modernizatsiya qilish va atrof-muhit holatini uzluksiz nazorat qilish muhimdir. Sanoat korxonalarining ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilishini ta'minlash, zararli chiqindilarni kamaytirish va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish ekologik barqarorlikka erishishning muhim omilidir. Shuningdek, ichimlik suvi sifatini nazorat qilish tizimini kuchaytirish, suv resurslaridan samarali foydalanish va ularning ifloslanishining oldini olish bo'yicha zamonaviy usullarni tatbiq etish zarur. Sifatli suv ta'minotini kengaytirish orqali oshqozon-ichak kasalliklarining ko'plab turlarini kamaytirish mumkin. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, mahalliy fermer xo'jaliklarida ekologik toza mahsulotlar yetishtirishni rag'batlantirish ham muhim yo'nalishlardan biridir.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda aholini muntazam ravishda tibbiy ko'riklardan o'tkazish, to'g'ri ovqatlanish va gigiyena qoidalariga rioya qilish bo'yicha keng ko'lamli ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish talab etiladi. Bu borada mahalliy hokimiyat organlari, sog'liqni saqlash muassasalari va jamoatchilik tashkilotlari o'rtasida hamkorlik o'rnatish zarur. Tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va qishloq hududlarida zamonaviy diagnostika imkoniyatlarini kengaytirish aholi salomatligini yaxshilashga sezilarli hissa qo'shadi. Umuman olganda, iqtisodiy geografik, ekologik va ijtimoiy yo'nalishlarda integratsiyalashgan choralar kompleksini amalga oshirish nafaqat hazm qilish tizimi kasalliklari darajasini pasaytiradi, balki hududdagi umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, davlat va jamoatchilikning uzviy hamkorligi bilan amalga oshiriladigan uzoq muddatli strategiyalar aholi turmush sifatini yaxshilashning asosiy garovi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Anderson K. Gastrointestinal diseases and the role of modern lifestyle: A review. *Journal of Health and Nutrition*, 2019, 25(3), 45-59.
2. Gumerov T.R. Environmental pollution and its impact on human health in rural areas. *Environmental Health Review*, 2016, 18(2), 101-115.
3. Isakov V.T. Environmental contamination and gastrointestinal disorders: A case study from Uzbekistan. *Central Asian Journal of Medical Research*. 2014. 12(4), 67-85.

4. Johansson M. Air pollution and its effect on the human digestive system. *European Journal of Environmental Medicine* 2019, 30(7), 123-137.
5. Karantinov S.V. Socioeconomic determinants of health in rural communities. *Economic and Social Geography*. 2013, 21(1), 49-64.
6. Komilova N.K. Territorial Analysis of Medical-geographical Conditions and the Problems of Health of the Population of the Republic of Uzbekistan. *Journal of Environmental Science and Engineering*. 2010. 4(12), 64-68.
7. McCarthy M. Dietary habits and health outcomes: A comparative study. *Journal of Global Nutrition*, 2020. 34(9), 33-50.
8. Mustafaev A. Access to healthcare in rural Uzbekistan: Challenges and solutions. *Journal of Health Policy*, 2021, 29(5), 112-130.
9. Salahov R. Economic development and its correlation with public health. *Central Asian Economics*. 2020, 28(6), 74-92.
10. Solomonov P.D. Barriers to medical service access in rural regions. *Journal of Rural Health*. 2019, 31(11), 45-68.
11. Wilson J., et al. The increasing prevalence of gastrointestinal diseases: A global perspective. *World Health Journal*, 2021, 40(2), 22-38.
12. Yadav M. Nutrition and gastrointestinal diseases in South Asia: A growing concern. *South Asian Journal of Medical Sciences*. 2020, 18(3), 55-70.
13. Zhao G. Dietary factors influencing digestive health in urban populations. *Asian Journal of Digestive Health*. 2018, 23(5), 59-78.
14. Zainutdinov O. (2017). The environmental impact of agricultural chemicals in Uzbekistan. *Environmental Science in Central Asia*. 2017, 19(3), 89-105.
15. World Health Organization (WHO). Global burden of digestive diseases. Geneva: WHO Press. 2020.
16. Khujamova S.B. Nozogeographic situation and factors influencing them // *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, Hosted online from Paris, France. 2023. 2 (4), -P. 353-358.
17. Khujamova S.B. History of nosogeographical research and its scientific and theoretical issues // *Электронное научно-практическое периодическое издание. Экономика и социум*. 2023. №9 (112). -С. 152-159.
18. Xujamova S.B. Xavfli kasalliklar va ularning geografiyasi. // *Zamonaviy geografiya: innovatsion rivojlanishining ilmiy-uslubiy asoslari*. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari (Urganch, 27-28-oktyabr). 2023. 219-222-b.
19. Khujamova S.B. Geography of the spread of virus diseases in Uzbekistan and nozogeographic environment ways to improve // Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. International scientific-online conference. 2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14326687>
20. Xujamova S.B. Virusli kasalliklarning tarqalish geografiyasi va nozogeografik muhitni yaxshilash yo'llari // *Ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi*. 2024. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14263769>

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida aholi o'rtasida hazm qilish organlari kasalliklariga chalinish holati iqtisodiy-geografik jihatlar, ekologik omillar va tibbiy profilaktika choralarining ta'siri nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Viloyatning iqlim sharoiti, tabiiy resurslardan foydalanish holati, sanoat korxonalarining atrof-muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlari va ekologik muhitning ifloslanish darajasi sog'liqni saqlash ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sifatida o'rganilgan. Aholining oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga, ichimlik suvi gigiyenasiga e'tibor qaratish va sanitariya-epidemiologik holatni yaxshilash bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Shuningdek, hazm qilish tizimi kasalliklarining tarqalishiga qarshi profilaktik choralar, shu jumladan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, muntazam tibbiy ko'riklar o'tkazish va ekologik muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется заболеваемость населения Кашкадарьинской области болезнями органов пищеварения с точки зрения экономико-географических аспектов, факторов окружающей среды и влияния лечебно-профилактических мероприятий. В качестве основных факторов, влияющих на показатели здоровья, изучались природно-климатические условия региона, состояние использования природных ресурсов, негативное воздействие промышленных предприятий на окружающую среду, уровень загрязнения окружающей среды. Внесены предложения по улучшению качества продуктов питания, гигиены питьевой воды, улучшению санитарно-эпидемиологической обстановки. В нем также даны рекомендации по мерам профилактики распространения заболеваний органов пищеварения, включая пропаганду здорового образа жизни, проведение регулярных медицинских осмотров и улучшение экологической обстановки.

SUMMARY. This article analyzes the incidence of digestive diseases among the population of Kashkadarya region from the perspective of economic and geographical aspects, ecological factors and the impact of medical preventive measures. The climatic conditions of the region, the state of use of natural resources, the negative impact of industrial enterprises on the environment and the level of environmental pollution were studied as the main factors affecting health indicators. Proposals were put forward to pay attention to the quality of food products, drinking water hygiene and improve the sanitary and epidemiological situation of the population. Also, recommendations were given on preventive measures against the spread of digestive system diseases, including the promotion of a healthy lifestyle, regular medical examinations and improvement of the ecological environment.